



FUQAROLIK VA SIYOSIY HUQUQLARNI SUD ORQALI HIMOYA QILISH ASOSLARI

Abduganiyeva Gulrux Mansur qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti, davlat boshqaruvi huquqi
yo'nalishi magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15584872>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil

Ma'qullandi: 28-May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

KEYWORDS

fuqarolik huquqlari, siyosiy huquqlar, sud himoyasi, konstitutsiyaviy huquqlar, xalqaro standartlar, huquqiy davlat, sud tizimi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada fuqarolik va siyosiy huquqlarni sud orqali himoya qilishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston, MDH davlatlari hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning bu sohada to'plagan tajribasi qiyosiy-huquqiy tahlil usuliga asoslanib o'rganilgan. Maqolada sud himoyasining konstitutsiyaviy asoslari, xalqaro huquq standartlari, sud tizimining o'rni va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda duch keladigan muammolar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalarida fuqarolik va siyosiy huquqlarni samarali himoya qilish uchun sud tizimini takomillashtirish yo'llari taklif etilgan.

XXI asrda demokratik jamiyat qurishning asosiy mezonini sifatida inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasi e'tirof etilmoqda. Fuqarolik va siyosiy huquqlar demokratik davlatning poydevori bo'lib, ularning samarali himoyasi jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Sud tizimi esa bu huquqlarni himoya qilishning eng muhim institutidir. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlari amalga oshirilayotgan sharoitda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilishning yangi mexanizmlarini yaratish dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va milliy huquq tizimiga moslashtirib joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar tushunchasi XVII-XVIII asrlarda Yevropa ma'rifatparvarlik davrida shakllangan. Jon Lokk, Sharl Monteskyö, Jan-Jak Russo kabi mutafakkirlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar zamonaviy demokratik huquq tizimining asosini tashkil etadi¹. Fuqarolik va siyosiy huquqlar nazariyasi ko'p asrlik rivojlanish jarayonida turli olimlarning nazariy izlanishlari natijasida shakllanib kelgan. Bu huquqlar kontsepsiyasining rivojlanishida dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan yuqori malakali ilmiy xodimlar o'z hissalarini qo'shganlar. Jon Lokk o'zining "Davlat boshqaruvi haqidagi ikki risola" asarida tabiiy huquqlar nazariyasini ishlab chiqdi. Uning fikricha, har bir inson tabiatdan hayot, erkinlik va mulk huquqlariga ega bo'ladi. Bu huquqlar davlatdan oldin mavjud bo'lib, davlat ularni himoya qilish maqsadida yaratiladi. Sharl Monteskyö "Qonunlarning ruhi haqida" asarida hokimiyatlar bo'linishi nazariyasini yaratdi. U qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarini bir-biridan ajratish zarurligi haqida ta'lim berdi. Bu nazariya fuqarolarning

huquqlarini himoya qilishning muhim mexanizmi sifatida e'tirof etiladi. Jan-Jak Russo "Ijtimoiy shartnoma" asarida xalq suverenitetini asosladi. Uning fikricha, haqiqiy demokratiyada hokimiyat manba'i xalq bo'lishi kerak va barcha huquqlar bu asosdan kelib chiqadi. Georg Jellinek nemis huquqshunosi sifatida davlat nazariyasiga katta hissa qo'shdi. U fuqarolarning davlatga nisbatan to'rt xil holatini aniqladi: status subjectionis (bo'ysunish holati), status libertatis (erkinlik holati), status civitatis (fuqarolik holati) va status activus (faol fuqarolik holati). Bu klassifikatsiya fuqarolik huquqlarini tizimlashtirish uchun muhim asos bo'ldi.

Fuqarolik huquqlari - bu shaxsning jamiyatdagi mavqeini belgilovchi, uning shaxsiy erkinligi va mustaqilligini ta'minlovchi huquqlar majmuasidir. Bularga hayot huquqi, erkinlik huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi va boshqalar kiradi. Siyosiy huquqlar esa fuqaroning davlat boshqaruvida ishtirok etish, siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini belgilovchi huquqlar to'plamidir. Saylov huquqi, birlashish huquqi, so'z erkinligi kabilar bu guruhga kiradi. Rossiyalik huquqshunos V.E. Chirkin ta'kidlaganidek, fuqarolik va siyosiy huquqlar o'rtasidagi chegarani aniq belgilash har doim ham mumkin emas, chunki ularning aksariyati o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar – bu shaxsning huquq va erkinliklarini hukumatlar, ijtimoiy tashkilotlar va xususiy shaxslar tomonidan buzilishidan himoya qilaligan, jamiyat va davlatning fuqarolik va siyosiy hayotida kamsitish va repressiyalarsiz ishtirok etish imkoniyatini ta'minlaydigan huquqlar sinfidir.

Fuqarolik huquqlari shaxslarning jismoniy va aqliy yaxlitligini, hayoti va xavfsizligini ta'minlashni o'z ichiga oladi hamda ularga irqi, dini, millati va boshqa shaxsiy xususiyatlaridan qat'i nazar, teng ijtimoiy imkoniyatlarni va qonun tomonidan baravar himoya qilishni ta'minlaydi. Ba'zi fuqarolik huquqlariga yashash, shaxsiy daxlsizlik huquqlari, so'z, harakatlanish, vijdon, shaxsiy hayot erkinligi va boshqalar kiradi.

Siyosiy huquqlar shaxslarning davlat va jamiyat hayotida erkin ishtirok etishiga imkon beradi. Bunga ovoz berish va davlat lavozimlarini egallash kiradi. Siyosiy huquqlarga ovoz berish huquqi, davlat lavozimlariga nomzod bo'lish huquqi, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazish huquqi, uyushmalar tuzish huquqi va boshqalar kiradi.

Fuqarolik huquqlari inson huquqlari sifatida universal bo'lsa-da, siyosiy huquqlar ko'pincha fuqarolar (faqatgina ma'lum bir davlat fuqarolari uchungina) bilan cheklanadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar turli xalqaro va mintaqaviy shartnomalar, davlatlarning milliy konstitutsiyalari bilan himoya qilinadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt ushbu huquqlarni xalqaro darajada himoya qilishni ta'minlaydigan eng keng qamrovli shartnoma hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mazkur Xalqaro paktga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 31 avgustdagi 127-I-sonli «1966 yil 16 dekabrda fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga qo'shilish haqida»gi qaroriga asosan qo'shilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VI – VIII boblari bilan ushbu huquqlar milliy darajada muhofaza qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 54-moddasi barcha fuqarolarning o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega ekanligini mustahkamlaydi. Huquqiy tenglik prinsipi - barcha fuqarolar qonun va sud oldida teng ekanligi prinsipidir. Bu tamoyil AQSH Oliy sudining Brown v. Board of Education (1954) ishida yaqqol namoyon bo'lgan.

Sudda himoya olish huquqining universal ekanligi - bu printsip har bir fuqaroning buzilgan huquqlarini tiklash uchun sudga murojaat etish imkoniyatini kafolatlaydi. Konstitutsiyaning 130-moddasi esa sud hokimiyatining mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishini belgilaydi. Bu tamoyil sud hokimiyatining boshqa hokimiyat tarmog'laridan mustaqilligini ta'minlaydi. Nemis konstitutsiyaviy huquqshunosi Klaus Stern ta'kidlaganidek, sud mustaqilligi demokratik davlatning asosiy belgisidir.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 11-moddasiga ko'ra, Fuqarolik huquqlari quyidagi yo'llar bilan himoya qilinadi:

huquqni tan olish;

huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish;

bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash;

davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;

shaxsning o'z huquqini o'zi himoya qilishi;

burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;

zararni to'lash;

neustoyka undirish;

ma'naviy ziyonni qoplash;

huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish;

davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi.

Fuqarolik huquqlari qonunda nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ham himoya qilinishi mumkin.

Xalqaro huquqiy normalar: BMTning "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt", YeXHT hujjatlari va boshqa xalqaro bitimlar fuqarolik huquqlarini sud orqali himoya qilishga oid qoidalarini o'z ichiga oladi.

Fuqarolik huquqlarini sud orqali himoya qilish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

-Da'vo qo'zg'atish orqali: Fuqarolar yoki yuridik shaxslar o'z huquqlari buzilgan deb hisoblaganda, sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilishadi. Da'vo arizasida talabning mohiyati, asosi, buzilgan huquqlar va dalillar ko'rsatiladi.

- Sud buyrug'i chiqarish orqali: Ayrim fuqarolik ishlari bo'yicha sud oddiy va tezkor tartibda qaror chiqarishi mumkin. Masalan, qarzdorning majburiyatlarini bajarishi uchun sud buyrug'ini chiqarish kabi holatlar.

- Ma'muriy sudlarga murojaat qilish orqali: Agar fuqaroning huquqlari davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan buzilgan bo'lsa, u ma'muriy sudga shikoyat qilish huquqiga ega. Bu davlat organlari ustidan nazoratni ta'minlaydi va fuqaroning manfaatlarini himoya qiladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda sud-huquq sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2016-yilda "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni qabul qilindi.

Hozirgi kunda quyidagi yutuqlarni qayd etishimiz mumkin:

- Sud tizimining mustaqilligini kuchaytirish chora-tadbirlari
- Fuqarolarning sudga murojaat etish imkoniyatlarini kengaytirish
- Elektron sud tizimini joriy etish
- Hakamlilik sudlarini rivojlantirish

Biroq, hali ham quyidagi muammolar mavjud:

- Fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasining pastligi
- Sud jarayonlarining uzoq davom etishi
- Ba'zi toifalardagi ishlarni ko'rishda sud amaliyotining yetarli emasligi

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida quyidagi takliflarni berish mumkin:

- Konstitutsiyaviy shikoyatlar institutini tashkil qilish: Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlari tajribasiga asoslanib, O'zbekistonda ham konstitutsiyaviy shikoyatlar institutini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu institut fuqarolarga o'z konstitutsiyaviy huquqlarini bevosita himoya qilish imkoniyatini beradi.

- Ijtimoiy himoyalanuvchi toifalar uchun maxsus protsessual kafolatlar: AQSH va Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy himoyalanuvchi toifalar (nogironlar, keksa fuqarolar, bolalar) uchun maxsus protsessual kafolatlar mavjud. O'zbekistonda ham shunga o'xshash mexanizmlarni joriy etish zarur.

- Bepul yuridik yordam tizimini kengaytirish: Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, bepul yuridik yordam tizimini yanada kengaytirish va malakali yuristlar bilan ta'minlash zarur.

Fuqarolik va siyosiy huquqlarni sud orqali himoya qilish zamonaviy demokratik davlatning asosiy funksiyalaridan biridir. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari bu sohadagi vaziyatni sezilarli yaxshilashga olib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, samarali sud himoyasi tizimi yaratish uchun quyidagi omillar muhim:

- Sud tizimining haqiqiy mustaqilligi - bu nafaqat konstitutsiyaviy normalar, balki amaliy kafolatlar bilan ta'minlanishi kerak.

- Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish - bu sud himoyasidan samarali foydalanish uchun zarurdir.

- Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish - elektron sud, masofaviy sud majlislari kabi yangiliklar sudga murojaat etishni osonlashtiradi.

- Xalqaro standartlarga muvofiqlik - milliy qonunchilik xalqaro huquq standartlariga mos kelishi kerak.

- Doimiy takomillashtirish - sud tizimi dinamik jarayon bo'lib, doimiy rivojlanishni talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagilarni taklif qilamiz:

Birinchidan, qonunchilik sohasida Konstitutsiyaviy shikoyatlar to'g'risidagi qonun qabul qilish va bu institutni amalda joriy etish hamda "Bepul yuridik yordam to'g'risidagi qonun"ni takomillashtirish lozim.

Ikkinchidan, sudyalarning malaka oshirish tizimini takomillashtirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, elektron sud tizimini yanada rivojlantirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini sud jarayonlariga tatbiq etish hamda masofaviy sud majlislari imkoniyatlarini kengaytirish darkor.

Fuqarolik va siyosiy huquqlarni sud orqali himoya qilish zamonaviy huquqiy davlatning ajralmas qismidir. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari to'g'ri yo'nalishda olib borilmoqda, ammo rivojlangan mamlakatlar tajribasidan yanada ko'proq foydalanish zarur. Konstitutsiyaviy shikoyatlar instituti, bepul yuridik yordam tizimining kengaytirilishi, sud jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kabi chora-tadbirlar fuqarolarning o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini sezilarli oshiradi. Sud himoyasi tizimining samaradorligi nafaqat qonunchilik bazasining mukammalligi, balki jamiyatning huquqiy madaniyati darajasi, fuqarolarning o'z huquq va majburiyatlarini bilish darajasiga ham bog'liqdir. Shuning uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, bu barcha davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
3. Чиркин В.Е. Конституционное право зарубежных стран.
4. Монтескье Ш. О духе законов // Избранные произведения.
5. Stern K. Das Staatsrecht der Bundesrepublik Deutschland.
6. Brown v. Board of Education.
7. Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре.
8. Еллинек Г. Общее учение о государстве.

INNOVATIVE
ACADEMY